

KONSEPTNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA UNING TIL TIZIMIDAGI O'RNI

*Sattorova Nafisa Isomidinovna, Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute
o'qituvchisi, SamDChTI mustaqil izlanuvchisi
Fine_2014@mail.ru*

Annotatsiya

Ushbu tezisda kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchasi bo'lgan "konsept"ning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Konseptning lisoniy ifodalanish usullari va uning madaniy-ma'naviy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konsept, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sadoqat, kurash, lisoniy manzara, mentalitet, semantik maydon, antropotsentrizm, kognitiv struktura.

Abstract

This thesis explores the linguistic features of "concept," a central notion in cognitive linguistics. The ways of linguistic expression of a concept and its cultural-spiritual aspects are analyzed.

Key words: Concept, linguoculturology, cognitive linguistics, loyalty (sadoqat), struggle (kurash), linguistic worldview, mentality, semantic field, anthropocentrism, cognitive structure.

Аннотация

В данной тезисе исследуются лингвистические особенности «концепта», центрального понятия когнитивной лингвистики. Анализируются способы языкового выражения концепта и его культурно-духовные аспекты.

Ключевые слова: Концепт, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, верность (сaddockat), борьба (кураш), языковая картина мира, менталитет, семантическое поле, антропоцентризм, когнитивная структура.

Introduction (Kirish)

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi tilni inson tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda konsept tushunchasi asosiy o'rin tutadi. Konsept — bu faqatgina lug'aviy ma'no emas, balki inson ongida shakllangan madaniy, hissiy va mental obrazlar majmuasidir. Tadqiqotning maqsadi konseptning tilda namoyon bo'lish xususiyatlarini va uning leksik-semantik maydonini yoritib berishdan iborat. Misol qilib oladigan bo'lsak, "Sadoqat" — o'zbek xalqi uchun aksiyologik (qadriyat) ahamiyatga ega ma'naviy birlik bo'lsa, "kurash" — nafaqat jismoniy harakat, balki hayotiy falsafa va iroda timsolidir. Ushbu konseptlarni o'rganish o'zbek xalqi mentalitetidagi barqarorlik va faollik tamoyillarini ochib beradi.

Methods (Metodlar)

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Komponent tahlil: So'z semantikasidagi konseptual belgilarni ajratish uchun.

Konseptual tahlil: Til birliklarining mental strukturasi va kognitiv qatlamlarini aniqlash uchun.

Lingvokulturologik tahlil: Konseptning milliy-madaniy bo'yoqlarini ochib berish maqsadida.

"Sadoqat" konsepti ishonch, vafodorlik, e'tiqod kabi leksik birliklar orqali, "kurash" konsepti esa bellashuv, g'alaba, zafar, qarshilik kabi semantik maydonlar asosida tahlil qilindi.

Results (Natijalar)

Tahlillar natijasida konseptning quyidagi lingvistik xususiyatlari aniqlandi:

Ko'pqirralilik: Konsept bir vaqtning o'zida ham lisoniy (so'z), ham kognitiv (fikir), ham madaniy (qadriyat) birlik hisoblanadi.

Nominalizatsiya: Har qanday konsept tilda muayyan bir leksik birlik (nom) orqali obyektivlashadi.

Yadro va periferiya: Konsept strukturasi markaziy (lug'aviy ma'no) va periferik (assotsiatsiya, metafora, frazeologizm) qismlardan iborat ekanligi isbotlandi.

Masalan o'zbek tilidagi kurash hamda sadoqat konseptini oladigan bo'lsak, Sadoqat konsepti o'zbek tilida asosan antropomorfik (insoniy fazilat) va zoomorfik (masalan, "it sadoqati") timsollar orqali ifodalanadi. Uning yadrosida "Vatanga sadoqat", "do'stga vafodorlik" va "oilga mustahkamligi" kabi kognitiv belgilar turadi.

Kurash konsepti esa o'zbek tilida ikki yo'nalishga ega:

Milliy sport (Kurash): milliy iftixor va polvonlik obrazi bilan bog'liq.

Ijtimoiy-falsafiy kurash: hayot qiyinchiliklarini yengish ("yashash uchun kurash").

Discussion (Muhokama)

Konsept va tushuncha o'rtasidagi farq shundaki, tushuncha faqat mantiqiy belgilarni qamrab olsa, konsept o'z ichiga hissiyot va milliy mentalitetni ham oladi. Masalan, "Sadoqat" konsepti passiv-barqarorlikni (sabitqadamlik) anglatadi, "kurash" konsepti aktiv-dinamikani ifodalaydi. Qiziqi shundaki, o'zbek badiiy adabiyotida bu ikki konsept ko'pincha kesishadi: masalan, "o'z e'tiqodi uchun kurashishda sadoqatli qolish". Bu esa konseptlararo bog'liqlik — konseptual integratsiyani hosil qiladi. Bu esa konseptning tildagi variativligini ta'minlaydi.

Xulosa

Konsept — til va tafakkurni bog'lovchi ko'p o'lchovli mental tuzilmadir. Uning lingvistik xususiyatlarini o'rganish xalqning dunyoqarashi va milliy til manzarasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

"Sadoqat" va "kurash" konseptlari o'zbek tilining milliy-madaniy kodlarini tashkil etuvchi asosiy ustunlardir. Ularning lingvistik tahlili til birliklarida nafaqat ma'no, balki butun bir xalqning qadriyatlar tizimi aks etishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
2. Askoldov S.A. Konsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. – M., 1997.
3. Lixachev D.S. Konseptosfera russkogo yazika. – M., 1993.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va

adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 3.

5. Uzakova X. “Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar va timsollar orqali ifodalanishi // O‘zbekiston: til va madaniyat. – 2024. – № 1.

6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Akademiya, 2001.

7. Sattorova N.I. Badiiy adabiyotda konsept voqelanishining lingvistik asoslari “Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” 2024: 7/4 (116) ISSN 2091-573X